

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR AHAMIYATI

Yo‘ldashova Gavhar Xusnitdinovna

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti v.b dotsenti, O‘zbekiston

g.yoldashova@tsue.uz 94-659-84-27

Annotatsiya. *Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sharoitida kompaniyalarning faoliyat ko‘rsatishi va innovatsion rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo‘lib boshqaruv faoliyatining biri samarali tizimi hisoblanadi. Faoliyat yuritayotgan kompaniyalar barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning boshqaruviga bevosita bog‘liqdir. Kompaniyalar o‘zlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini boshqarishlari kerak, ammo boshqaruv sifati yomon bo‘lsa, bunday vazifa imkonsiz bo‘lib qoladi. Agar strategik boshqaruv tizimi mavjud bo‘lmasa, kompaniya to‘liq strategiyani yaratishi va uni samarali amalga oshirishi shubha ostida qoladi.*

Kalit so‘zlar: *korporativ strategiya, korporativ boshqaruv, samaradorlik, korxona maqsadlari, ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, kompaniyalar, Kuzatuv kengashi, raqobatbardoshlik, boshqaruv sifati.*

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sharoitida kompaniyalarning faoliyat ko‘rsatishi va innovatsion rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo‘lib boshqaruv faoliyatining biri samarali tizimi hisoblanadi. Faoliyat yuritayotgan kompaniyalar barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning boshqaruviga bevosita bog‘liqdir. Tashkil etilgan korporativ boshqaruv o‘z navbatida kompaniyaning bozordagi mavqeiga, uni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish darajasiga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompaniya xodimlarining turmush darajasiga ta’sir qiladi. Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va rivojlantirish yo‘llari, O‘zbekistonning iqtisodiy va huquqiy tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, jamiyatni yanada barqaror va samarali boshqarish, biznesni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tamoyillarini o‘rganish zaruriyatini tug‘diradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan islohotlar, iqtisodiy o‘rtni ta’minlash, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan strategiyalar, mamlakatda korporativ boshqaruvni yangilash va modernizatsiya qilish zaruratini oshirmoqda. Davlat rahbari o‘z nutqlarida davlatni raqamlashtirish, biznesni qo‘llab-quvvatlash, yuridik shaxslarning samarali boshqaruvini ta’minlash, huquqiy va iqtisodiy tizimlarda islohotlarni amalga oshirishning muhimligini ta’kidlagan.

Bugungi kunda kompaniyalarning boshqaruv sifatini baholashning iqtisodiy jihatdan samarali va ilmiy asoslangan usulini, shuningdek boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni qanday tashkil qilish muhim hisoblanadi. Bunday ishni strategik boshqaruv tizimining sifatini tezkor baholash bilan boshlash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAXLILI

Xorij mamlakatlari tajribasidan ma'lumki, korporativ boshqaruv mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beradigan asosiy tuzilma hisoblanib, hozirda iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanyotgan mamlakatlarda takomillashib bormoqda. Chunki davlatning korporativ sektorini ilg'or xoijiy tajribalarni joriy etish orqali rivojlantirish kompaniyalardan xalqaro standartlarga mos darajadagi korporativ boshqaruvni talab qiladi.

Samarali korporativ boshqaruvning asosi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- kompaniyaning ichki hujjatlarida belgilanadigan vakolat va vazifalarning aniq tarzda taqsimlanishi;
- yetarli darajadagi hisobdorlik;
- o'zaro nazorat qilish hamda bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilinishining oldini olishni ta'minlovchi, bank boshqaruvi organlari va (yoki) tarkibiy tuzilmalar o'rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishi;
- o'zining vakolatlari va vazifalarini yaxshi biluvchi, funktsional vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi ishbilarmonlik va odoq-axloq qoidalariga rioya etuvchi, bank kuzatuv kengashining va ijroiya organining yuqori malakali a'zolari mavjudligi"³⁹.

Bunday munosabatlarni isbotlash uchun turli xil nazorat modellarini ko'rib chiqish mumkin. R.Kaplan va D.Norton tomonidan yaratilgan "Muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi"⁴⁰ (Balanced Scorecard) bunga misol bo'la oladi. Bunda 4 ta ma'lumotlar guruhi ajratiladi, ular o'rganiladi, keyin esa, boshqaruv qarori qabul qilinadi. Odatda, moliya, iste'molchilar, biznes jarayonlari va xodimlar tahlil qilinadi. Har bir guruh uchun ishlash mezonlari aniqlanadi, rejalashtirilgan holatlar va olingan natijalar bilan o'zaro taqqoslanadi.

Korporativ boshqaruvning yuqori darajasi korxonaga rahbarlik jarayonlari va strategik vazifalarni amalga oshirishda samaradorlikka erishishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada turli usullardan foydalanildi. Kompaniyalarda korporativ boshqaruvda innovatsiyalarni qo'llashda tizimli yondashuvlar, kompaniyaning innovatsion faoliyati, monografik kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama


³⁹ Yuldasheva G "Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish istiqbollari", Moliya va bank ishi Ilmiy elektron jurnali. IV son.Iyul-avgust 2020. www.journal.bfa.uz.

⁴⁰ Каплан Р., Нортон Д. Награда за блестящую реализацию стратегии. Связь стратегии и операционной деятельности гарантия конкурентного преимущества. - М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2010. - 368 с.

tahlil, ekspert baholash, konstruktiv baholash, bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan

TAXLIL VA NATIJALAR

Korporativ boshqaruv doirasida kompaniyaning barqaror rivojlanishi va uning innovatsion iqtisodiyot talablariga moslashishi o'rtasidagi maqbul muvozanatni saqlash muhimdir. Quyidagi rasmda esa, korporativ boshqaruv tizimida iqtisodiy manfaatlarning o'zaro ta'siri shartlari va omillari keltirilgan.



1 – rasm. Korporativ boshqaruv tizimida iqtisodiy manfaatlarning o'zaro ta'siri shartlari va omillari⁴¹

Ta'kidlash joizki, har qanady kompaniya faoliyatini takomillashtirishda, boshqaruv tamoyillarini hisobga olgan holda, ishonchli strategiyani qo'llash isloh qilinishning samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Korporativ boshqaruvning sifati kompaniyalar samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli kompaniyalarga zamonaviy texnika, texnologiyalarni jalb etish bilan birga kompaniyaning uzoq muddatli yutuqlari samarali ishlab chiqilgan strategiyaga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya o'z oldiga sifatli boshqaruv va barqaror rivojlanish strategiyasini qo'llamasa bozorda mustahkam o'rin egallash imkoni bo'lmaydi. Zamonaviy ilm fan va amaliyot strategiyani rejalashtirish va kompaniyani boshqarish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lishiga qaramasdan, tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchanligi sharoitiga moslasha olmayapti.

Bu omillarning barchasi kompaniyaning hozirgi va kelajakdagi qiymatiga katta

⁴¹ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

ta'sir ko'rsatadi.

Korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash imkoniyatlari mavjud bo'lib, bunda kompaniyalarga korporativ boshqaruv tizimining sifatini yaxshilashga yordam beradigan quyidagi omillar mavjud:

1. Strategik maqsadlarni belgilashdagi konkret masalalar. Ishlab chiqarish, marketing va boshqa jarayonlarda qo'llaniladigan yangiliklar umumiy vazifaga, ya'ni kompaniyaning bozordagi mavqeini saqlab qolish va raqobatda g'alaba qozonishga xizmat qilishi kerak. O'zgarishlar moliyaviy foyda keltirishi va investitsiya qilingan mablag'larni oqlashi uchun ularni doimiy ravishda kuzatib borish kerak.

2. Kompaniyaning ichki tuzilmasini rivojlantirish. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijobiy natija funksional-strukturaviy modelni jarayonli-rolli yoki matritsa modeliga almashtirish orqali olinishi mumkin. Agar sharoitlar bunga imkon bersa, natijada iyerarxik darajalarning pasayishi va boshqaruvning gorizontali turi shakllantirilgan bo'ladi. Boshliqlar va bo'ysunuvchilar orasidagi masofa kamayadi, bu tizimning moslashuvchanligi va ish tezligiga ijobiy ta'sir qiladi.

3. Boshqaruv xarajatlarining kamayishi. Agar ular miqdori foydadan oshib ketgan bo'lsa, rahbariyatni to'liq qayta tashkil etish yoki uning zaif tomonlarini mustahkamlash haqida o'ylash kerak.

Shuningdek, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish ham muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, kompanyalarda korporativ boshqaruv samarali ishlashi, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlariga investitsiyani jalb etish, manfaatdor tomonlar oldidagi majburiyatlarni izchil amalga oshirishni talab etadi.

1. Korporativ boshqaruv – bu qulay investitsiya muhiti va sog'lom tadbirkorlik muhitini yaratishda davlat va biznesning manfaatlari to'liq mos keladigan sohadir. Mamlakatda milliy iqtisodiyotning ishbilarmonlik faolligi va investitsion jozibadorligi qanchalik yuqori bo'lsa, korporativ boshqaruv institutlari shunchalik tez rivojlanadi.

2. Kompaniyalarning xorijiy va mahalliy tajribasini tahlil qilish menejmentning xususiyatlari va hozirgi tendensiyalarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Aksiyadorlik jamiyatlari: davlat ishtiroki darajasi bo'yicha, fond bozorida ishtirok etish darajasi bo'yicha (ichki), fond bozorida ishtirok etish darajasi bo'yicha (tashqi), xorijiy kapitalning ishtirok etish darajasi bo'yicha, mustaqil direktorlar (yuqori menejment) ishtirok etish darajasi bo'yicha, sohaga mansubligi (iqtisodiy faoliyat turlari) va hajmi bo'yicha tasniflanadi.

3. Korporativ boshqaruv kompaniyaning xususiyatlarini, uning maqsadi, vazifasi va rivojlanish strategiyasini hisobga oladigan va o'zaro ta'sir qiluvchi kapital tuzilishi va subyektlar manfaatlarining muvozanatini ta'minlash, boshqaruv tuzilishi, axborot ta'minotining shaffofligi, korporativ etika va madaniyat kabi elementlarni o'z ichiga olgan moslashuvchan boshqaruv mexanizmi sifatida ko'rib chiqilgan.

Korporativ boshqaruv jarayonlarining sifati kompaniyaning asosiy strategiyasiga

yaqinlashishi bilan tavsiflanadi. Faoliyat tizimlarining rivojlanishi odatda, yakuniy natijalarga qaratilgan, shuning uchun korporativ strategiyalar ushbu natijalarga muvofiq shakllantiriladi va o'zaro bog'liqdir. Boshqarish tizimining funksional darajasi ob'ektning sifat xususiyatlarini aks ettiradigan o'zaro bog'liqlikdagi ma'lum bir natijaga (samaraga) erishishni anglatadi.

Korporativ boshqaruvning sifatini oshirish ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyati va kompaniyalarning asosiy poydevori bo'lganligi sababli, jalb etilayotgan investitsiyalarni qaysi bir turiga katta e'tibor berilishi zarurligini asoslash lozim. Aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi kompaniyalarining korporativ boshqaruv strategiyalarga ta'sir etuvchi omillar bo'lib ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini kamaytirish va tannarxini pasaytirish hamda energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq etish bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- 1.Suyunov D.X, Xoshimov E.A. Korporativ boshqaruv modellari: kontseptual jihatlar, zamonaviy tendentsiyalar va konvergentsiya imkoniyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017 yil. 7-bet.
- 2.G.X. Yo'ldashova Kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirish. Ixtisosligi – 08.00.13 – Menejment. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2023.
- 3.Maxkamova M.A. Aksionerlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. "Korporativ boshqaruv nazariya va amaliyot" Ilmiy maqolalar to'plami (respublika ilmiy seminari materiallari).23 yanvar 2019 yil. 36- bet.
- 4.Ashurov Z.A Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi/TDIU T.; –2019– 64-89 b.
- 5.Yuldasheva G "Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish istiqbollari", Moliya va bank ishi Ilmiy elektron jurnali. IV son.Iyul-avgust 2020. www.journal.bfa.uz.
6. Каплан Р., Нортон Д. Награда за блестящую реализацию стратегии. Связь стратегии и операционной деятельности гарантия конкурентного преимущества. - М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2010. - 368 с.
7. Shleifer A. and Vishny R.W. A Survey of Corporate Governancye // Journal of Financye. – 1997.- No.52. - P.737-783.
8. John K. and Senbet L.W. Corporate Governancye and Board Effectiveness // Journal of Banking and Financye. - 1998 – No.22 (4). - P.371-403.
9. Khanna, T.; Kogan, J.; Palepu, K. Globalization and dissimilarities in corporate governancye: A cross-country analysis. // Rev. Econ. Stat. 2006, 88, 69-90.
10. Martynova M. and Renneboog L. "Evidencye on the international evolution and convergencye of corporate governancye regulations", // Journal of Corporate Financye, 2011. Vol. 17 No. 5, pp. 153+1-1557.
11. Fabrizio Ferraro. "Going political? Towards deliberative corporate governancye"

// Management and Governancye Published: 23 August 2018.

12.Мартынов В.С., Бородин.В.О. Корпоративная культура и методы ее формирования. // «Акционерное общество: вопросы корпоративного управления», Май 5 (168) 2018.

13.Yuldashova G. Korporativ boshqaruv sifatini baholash samaradorlik mezonidir. Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 2-son. https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a11